

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

5-son
(maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

**TAHRIRIYAT**

4 Sog'lom turmush tarzi – farovon hayot asosi ekanligini targ'ib qilish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo

**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI**

- | | |
|--|---|
| T. Achilov | 6 Pedagogik ta'lif innovatsion klaster yondashuvida o'zaro hamkorlikning didaktik imkoniyatlari |
| A. Abdulaxatov | 10 Kurash orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning ilmiy-nazariy asoslari |
| A. Tursunov | 13 Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda chaqirriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarining pedagogik imkoniyatlari |
| A. Abdulaxatov,
B. Muxtorov | 16 Talaba-yoshlarda kurash sport turini tatbiq etish ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasiga sifatida |
| A. Shadiyev | 20 Bolalar va o'smirlar bilan o'tkaziladigan yengil atletika mashg'ulotlarining ilmiy-amaliy ahamiyati |
| M. Shermatov | 24 Umumiyligi o'rta ta'lif maktablari o'quv dasturida voleybol darsining ahamiyati |
| J. Shukurllayev | 28 Voleybol sport turi vositasida maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik imkoniyatlari |
| J. Xudoyberganov | 31 Ta'lif muassasalarida o'quvchilar jismoniy tarbiyasining amaliy ahamiyati |

**TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI**

- | | |
|-----------------------|---|
| F. Nurmatov | 34 Harakatli o'yinlar bola tarbiyasining asosiy usuli sifatida |
| U. Zokirov | 38 Umumiyligi o'rta ta'lif maktablarida jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning shakllari |
| A. Yusupbayeva | 42 Maktabgacha yoshdagagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o'yinlarni tashkil etish usullari |
| R. Atajanova | 46 Ishchi daftarning boshlang'ich sinfi o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini shakllantirishdagi o'rni |
| B. Ko'kiyev | 49 Yordamchi proyektsiyalash usulida pozitsion masalalarni yechishning metodik qulayligi |

**TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT**

- | | |
|------------------------|--|
| S. Xabibullayev | 53 Umumiyligi o'rta ta'lif maktablarida sport o'yinlari futbol bo'yicha musobaqalarni tashkil etishning ahamiyati |
| J. Shukurllayev | 57 Klaster yondashuv asosida voleybolchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini rivojlantirish |
| A. Sultonov | 60 Belbog'li kurash qoidalarning xususiyatlari |
| V. Karayev | 63 Kompetensiyalarning innovatsion ta'lif klasteridagi ahamiyati |
| D. Umaraliyeva | 66 Sportchilarda dispanser nazoratini tashkil etishning xususiyatlari |

**MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

- | | |
|---|--|
| I. Marasulova,
N. Boymurotov | 69 O'zbekiston me'moriy yodgorliklarda naqsh bezaklarining ahamiyati |
| S. Sobirov | 73 Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishda tasviriy san'atning o'rni |



TA'LIM VA TARBIYA FIDOYILARI

B. Baymetov	76	El sevgan ijodkor rassom, maktab yaratgan mehribon ustoz
S. Ataxanova	80	Chizma geometriya va chizmachilik fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar
M. Achilova	84	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tasviriy faoliyatda ijodkorligini rivojlantirish
E. Achilova	88	O'tkir Hoshimov asarlarida badiiy psixologizm muammosi



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR

X. Muratov	92	Mustaqil ta'limga tashkil etish va boshqarishda elektron ta'lim resurslari hamda multimediali o'qitish vositalaridan foydalanishning dolzarbliji
U. Zokirov	97	Olyi pedagogik ta'limga magistrlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish usullari
Sh. Jo'rayev	101	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish



ТЕОРИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

T. Achilov	105	Кластеризация методических задач учебной дисциплины "Физическая культура" в высшем образовании
I. Choriiev	109	Педагогическое проектирование кластерного подхода в системе повышения квалификации
R. Mamatzkulov	112	Научно-теоретические основы развития физической культуры студентов высших учебных заведений кластерным методом
B. Karaev	115	Развитие профессиональной компетентности преподавателей школы на основе кластерного подхода



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ

A. Sultonomov	118	Значение кластерного метода в развитии физической культуры детей школьного возраста
T. Zufarov	121	Методика развитие координационных способностей у детей младшего школьного возраста
C. Xabibullaev	126	Совершенствование педагогических механизмов обучения правилам спортивных игр на уроках физической культуры
A. Jumaev	131	Методика специальной физической подготовки студентов по волейболу в соревновательном периоде методом кластера
T. Zufarov	135	Общепедагогические методы используемые на уроке физического воспитания в школе



ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

I. Choriiev	139	Андрогический подход к педагогическим проектированиям в системе переподготовки и повышения квалификации
-------------	------------	---

Ulug'bek ZOKIROV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrasи o'qituvchisi

OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MAGISTRALARIDA AXBOROT – KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy pedagogika ta'lrim magistrlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlanishlari, kompyuter texnologiyalari va axborotlarni samarali qo'llashning zamonaviy usullari, axborot materiallaridan foydalanish bo'yicha ishlangan dasturlardan ijtimoiy va shaxsiy faoliyatlarida qo'llay olishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Axbot-kommunikativ texnologiya, axborot-kommunikativ kompetentlik, internet tarmog'i, axborotlardan samarali foydalanish.

В статье рассматриваются вопросы развития информационно-коммуникативных компетенций у магистров высшего педагогического образования, современные методы компьютерных технологий и эффективного использования информации, умение использовать разработанные программы по использованию информационных материалов в общественной и личной деятельности.

Ключевые слова. Информационно-коммуникативная технология, информационно-коммуникативная компетенция, сеть интернет, эффективное использование информации.

The article discusses the development of information and communication competencies in masters of higher pedagogical education, modern methods of computer technology and effective use of information, the use of programs for the use of information materials in social and personal activities.

Key words. Information and communication technology, information and communication competence, the Internet, effective use of information.

Axborot-kommunikativ texnologiyalar davrida oliy pedagogik ta'lrim tizimida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlanishish ta'lrim sohasining dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda axborot-kommunikativ kompetentlik oliy pedagogik ta'limga ilmiy-pedagogik adabiyotlarda va huquqiy normativ hujjatlarda ma'lum darajada yoritilib berilmoxda. Axborot-kommunikativ kompetentlikni hozirgi oliy pedagogik ta'lrim o'qituvchilari, talabalari, magistrлari axborot kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi bilan adashtirib qo'llashadi. Ilmiy nuqtayi nazar bilan qaraqanda ikkala tushuncha mohiyatan bir-biridan farq qiladi.

Axborot-kommunikativ texnologiya – bu umumiy tushuncha bo'lib, axborotlar umumlashtirib ishlash uchun mexanizmlar, algoritmlar va usullarni o'z ichiga oladi. Hozirgi davr axborot-kommunikativ texnologiyalari kompyuter dasturiy ta'minoti hamda telekommunikatsiya vositalari yordamida axborotlar qabul qilinadi va jo'natiladi.

Axborot-kommunikativ kompetentlik – rivojlanayotgan axborot jamiyati sharoitida samarali, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda axborotdan foydalanish, izlash, yaratish, qayta ishslash, baholash va yetkazish – tarqatish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish qobiliyatidir.

Axborot-kommunikativ kompetentlikga o'z zamonasining mohir pedagoglari

quyidagicha ta'rif berganlar:

A.A. Elizarov: axborot-kommunikativ kompetentlik – bilim, malaka va ko'nikma yig'indisi bo'lib, kasbiy vazifani amalga oshirishda juda muhim bo'lgan tajribani mavjudligidir.

L.N. Garbunova va A.M. Semibratov: axborot-kommunikativ kompetentlik – pedagogning mustaqil va o'z kasbiy faoliyati davomida axborot texnologiyalarni qo'llashdagi tayyorgarligi va qobiliyatidir.

V.B. Burmakina: axborot-kommunikativ kompetentlik – ta'limgartibiy va boshqa faoliyat jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilishda axborot – kommunikativ texnologiyalari savodxonligi bo'yicha egallagan barcha ko'nikmalarni qo'llay olish.

Xalqaro "Yunesko" tashkiloti tomonidan 2008-yilda "O'qituvchining axborot-kommunikativ kompetentligi tizimi" ishlab chiqildi.

"O'qituvchining axborot-kommunikativ kompetentligi tizimi" bo'yicha "Yunesko" tavsiyalarida ta'kidlanganidek, zamonaviy o'qituvchining savodxon bo'lishi va talaborda fan doirasidagi ko'nikma va malakalarini shakkantirishi yetarli emas. Zamonaviy o'qituvchining vazifasi o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan yaqindan tanishib, qo'yilgan vazifalarni yechishda, dasturda belgilangan fanlarni o'zlashtirishda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanishni o'rgatishdan ham iborat. "Yunesko" tomonidan berilgan tavsiyalarda, kompetensiya tuzilmasida o'qituvchining layoqati 6 aspektga ajratib ko'rsatiladi:

- ta'limgartibiy axborot kommunikativ texnologiyalarining o'rnini anglay bilish;
- ta'limgartibiy tuzish va baholash;
- pedagogik amaliyot;
- axborot-kommunikativ texnologiyalarining texnik va dasturiy ta'minotini bilish;
- ta'limgartibiy tashkil etish va boshqarish;
- kasbiy rivojlanish.

"Yunesko" tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida oliy pedagogik ta'limgartibiy magistrlarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Oliy pedagogik ta'limgartibiy magistrlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda ijtimoiy va shaxsiy faoliyatlarda natijali qo'llay olish, hozirgi oliy pedagogik ta'limgartibiy sohasining ustuvor masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Axborot – kommunikativ kompetentlik oliy pedagogik ta'limgartibiy magistrlarida kompyuter texnologiyalarini va boshqa texnologiyalar bo'yicha savodxonligini aqlan va bilim, ko'nikma asosida samarali foydalanishini aytishimiz mumkin bo'ladi. Ya'ni axborot-kommunikativ kompetentlik ta'limgartibiy sohasidagi dolzarb muhim bo'lgan katta va kichik muammolarni ham o'rganishni talab qiladi.

Hozirgi globallashuv jarayonida oliy pedagogik ta'limgartibiy magistrlarini internetdan, kompyuter texnologiyalaridan foydalinishida oddiy yo'nalish bo'yicha emas balki bu – texnologiyalardan pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda pedagogik va didaktik yondashuvlar asosida foydalaniishi zarurdir.

Oliy pedagogik ta'limgartibiy magistrlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlanishning asosiy 3 ta muhim yo'nalishlarni kiritishimiz mumkin bo'ladi:

1. Yetarli darajada axborot-kommunikativ kompetentlik bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi;
2. Axborot-kommunikativ kompetentlik bo'yicha oliy pedagogik ta'limgartibiy umumiy, ijtimoiy, shaxsiy muammolarni hal qilish;
3. Axborot-kommunikativ kompetentlik tushunchalarini oliy pedagogik ta'limgartibiy umumiy, ijtimoiy, shaxsiy muammolarni hal qilish;

yetakchi tushuncha sifatida qabul qilish, axborotlarni ishonchiligi va umumiylarini ma'lumotlarni samarali yetkazib berish va ilmiy-nazariy faoliyatda natijalarga erishish.

Oliy pedagogik ta'limga magistrlerida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda, magistrler quyidagi ma'lumotlarni bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

– mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqalardan) foydalana olishni;

– media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatiga riyoq qilish;

– ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila olish;

– kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (o'quv-metodik va ilmiy tadqiqot ishlari).

Oliy pedagogik ta'limga magistrlerida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha Oliy pedagogik ta'limga magistrlerida axborot-kommunikativ kompetentlik tashkil etish bo'yicha axborotlarni aniqlash va qidirish ko'nikmalariga ega bo'lish 31 foizni tashkil etdi;

Axborotlarni boshqarish integratsiya qilish 23 foizni tashkil etdi;

Internet tarmog'idan foydalanib axborotlarni yaratish va ularni baholash ko'satkichlari 22 foizni tashkil etdi;

Internet manbalari yordamida ya'ni elektron pochta va boshqa dasturlar yordamida ma'lumotlarni to'laqonli yetkazib berish 19 foiz ko'satkichlarni tashkil etdi.

Olingen tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oliy pedagogik ta'limga magistrlerida internet tarmog'idagi bilim darajalarini yuqori saviyada rivojlantirish bo'yicha, quyidagi nazariy hamda amaliy tavsiyalarni bajarish kerak bo'ladi.

Axborotlarni aniqlash va qidirish bo'yicha:

– savolni to'g'ri talqin qilish va savolni batafsil o'rganib chiqish;

– matnda ma'lumotlarni topish;

– topshiriglarni aniq va noaniq ko'rinishini umumlashtirish;

– tushunchalar va atamalarni identifikatsiyalash;

– batafsil ma'lumotlarni hisobga olgan holda qidirish shartlarini tanlash;

– qidiruv natijalarini so'ralgan shartlarga muvofiq bo'lishi hamda qidiruv strategiyasini shakllantirish;

Axborotlarni boshqarish va integratsiya qilish bo'yicha:

– axborotni tuzish uchun tasniflash sxemasini yaratish;

– tavsiya etilgan tasniflash sxemalaridan foydalanish;

– axborotni turli manbalarga solishtirish va to'plash;

– bilim olishda foyda keltirmaydigan axborotlarni ajratish;

– axborotni qisqa va mantiqiy ravishda har tomonlama umumlashtirish;

Axborotlarni yaratish va ularni baholash bo'yicha:

– olingen ma'lumotlarni shu jumladan, qarama-qarshi ma'lumot asosida muayyan muammoni hal etish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;

– muayyan muammoni hal etishda mavjud axborotni inobatga olib xulosa chiqarish;

– ziddiyatlari ma'lumotlar mavjud bo'lgan hollarda muammoni muvozanatlash;

– chiqarilgan xulosalarni asoslash va xulosalarning ishonchiliginini oshirish maqsida yaratilgan ma'lumotlarni turkumlash.

Axborot materiallarini yetkazib berish bo'yicha:

– internet orqali muayyan auditoriyaga ma'lumotni moslashtirish (tegishli vositalar,

til va vizual vositalarni tanlash);

- axborot manbalarini to'g'ri ko'rsatib berish;
- zarur hollarda axborotning maxfiyligini ta'minlash;
- madaniy, irqiy, etnik kelib chiqish yoki jinsiga nisbatan provakatsion bayonotlardan foydalanmaslik.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida oliy pedagogik ta'limga magistrlarining axborot-kommunikativ kompetentligi bosqichma–bosqich rivojlana boshlaydi. Bu tavsiyalar orqali oliy pedagogik ta'limga magistrlarining kompyuter dasturlari hamda axborotlar bo'yicha savodxonligi oshadi hamda ularning kelajakdagagi pedagogika kasbida axborotlardan namunali foydalanishlari yuqori saviyada tashkil etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy pedagogik ta'limga magistrlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda ilmiy-nazariy jihatdan yondashish talab qilinadi. XXI asr axborot texnologiyalar asri bo'lib, bo'lajak pedagoglarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ravishda seminarlar, kompyuter texnologiyalarining dasturlari yuzasidan treninglar, maxsus kurslar tashkil qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda asosiy tayanch bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'limga magistrlarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiya bilimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Magistrlarning internet tarmog'i orqali axborotlarni qabul qilishlari, ularni bazasini yuqori saviyada yaratishlari hamda belgilangan, kutiladigan internet pochtalariga yoki dasturlarga jo'natishlari ularning axborot savodxonligini yanada oshiradi.

Axborot-kommunikativ kompetentlikni ta'limga sohasining har qanday bo'g'inida rivojlantirish kelajakda kadrlarning innovatsion kompyuter texnologiyalarini tez va samarali o'rganishiga va ularning o'z sohalarini rivojlantirishlariga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Структура ИКТ. компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. <https://inpo.s-vfu.ru/wp-content/uploads/2020/02/rekomendatsii-YUNESKO.pdf>.
2. Zokirov Ulug'bek. Individual Features Of Development Of Information And Communicative Competence In Masters Of Higher Pedagogical Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. № 3 (3), 486-491. (2021). <https://usajournalshub.com/index.php/tajessei/article/view/2423/2314>
3. Zokirov Ulug'bek Murodjon o'g'li. Scientific and Theoretical Bases of Didactic Principles of Development of Information – Communicative Competence in Masters of Higher Pedagogical Education of the Republic of Uzbekistan. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. № 25 (4), 2021. 8896-8903. <http://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/3612>
4. Лебедева М.Б., Шилова О.Н. Что такое ИКТ компетентность студентов педагогического университета и как ее формировать? // Информатика и образование. – 2004. – № 3. – С. 95-100.
5. “Pedagogik atamalar” lug'ati. – T.: Meros, 2014. –15-b.
6. Новая ИКТ компетентность учителей. Газета “Лаборатория знаний” — официальный печатный орган издательства “БИНОМ. Лаборатория знаний” Выпуск 9, сентябрь 2014.